



ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNI IJTIMOIY-HUQUQIY HIMOYALASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

Eshimova Zuhro
Sobir qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti "Psixologiya va Sotsiologiya"*
kafedrasi magistranti
zuhraeshimova94@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada jamiyatning dolzarb muammolaridan biri bo'lgan xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasining so'nggi yillardagi qonunchilik bazasi, xususan, Prezident farmonlari va qarorlari asosida yaratilgan yangi tizim — "himoya orderi", reabilitatsiya markazlari va xotin-qizlar faollari instituti faoliyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash borasidagi xalqaro tajriba (Turkiya, Gruziya va Skandinaviya davlatlari) o'rganilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Zo'ravonlik qurbonlariga ko'rsatilayotgan psixologik, yuridik va ijtimoiy yordamning samaradorligi statistik ma'lumotlar yordamida asoslangan. Maqolaning maqsadi — xotin-qizlar xavfsizligini ta'minlashda davlat va jamiyat institutlarining hamkorligini yangi bosqichga ko'tarish choralari belgilashdan iborat.

Kalit so'zlar:

xotin-qizlar huquqlari, gender tenglik, himoya orderi, maishiy zo'ravonlik, reabilitatsiya, xalqaro standartlar, ijtimoiy himoya, huquqiy kafolat, ayollar daftari.

MODERN MECHANISMS OF SOCIAL AND LEGAL PROTECTION OF WOMEN VICTIMS OF VIOLENCE

Abstract. This article analyzes modern mechanisms for preventing pressure and violence against women—one of the most pressing social issues—and ensuring their social and legal protection. The study examines the legislative framework of the Republic of Uzbekistan in recent years, particularly the new system established through presidential decrees and resolutions, including protection orders, rehabilitation centers, and the institution of women activists. In addition, the article explores international experience in ensuring women's rights (Turkey, Georgia, and Scandinavian countries) and proposes recommendations for improving national legislation. The effectiveness

of psychological, legal, and social assistance provided to victims of violence is substantiated using statistical data. The purpose of the article is to identify measures to elevate cooperation between state and civil society institutions to a new level in ensuring women's safety.

Keywords: women's rights, gender equality, protection order, domestic violence, rehabilitation, international standards, social protection, legal guarantees, women's registry.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН, ПОСТРАДАВШИХ ОТ НАСИЛИЯ

Аннотация. В данной статье анализируются современные механизмы предотвращения давления и насилия в отношении женщин — одной из наиболее актуальных социальных проблем, а также обеспечения их социальной и правовой защиты. В ходе исследования рассмотрена законодательная база Республики Узбекистан последних лет, в частности новая система, сформированная на основе указов и постановлений Президента, включающая защитные ордера, реабилитационные центры и институт активисток женщин. Кроме того, в статье изучен международный опыт обеспечения прав женщин (Турция, Грузия и страны Скандинавии), а также выдвинуты предложения по совершенствованию национального законодательства. Эффективность психологической, юридической и социальной помощи, оказываемой жертвам насилия, обоснована статистическими данными. Цель статьи — определить меры по выведению взаимодействия государственных и общественных институтов в сфере обеспечения безопасности женщин на новый уровень.

Ключевые слова: права женщин, гендерное равенство, защитный ордер, бытовое насилие, реабилитация, международные стандарты, социальная защита, правовые гарантии, женский реестр.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida inson huquqlari, xususan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash ustuvor vazifa darajasiga ko'tarildi. O'zbekistonda ham xotin-qizlarni har qanday ko'rinishdagi zo'ravonlikdan himoya qilish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, oiladagi tinchlik va ayolning ijtimoiy himoyalanganligi — sog'lom jamiyat poydevoridir. So'nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlari ayollarning huquqiy maqomini tubdan o'zgartirdi. Biroq, globallashuv va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida zo'ravonlikning yangi shakllari (kiber-zo'ravonlik, iqtisodiy tazyiq) yuzaga kelayotgani himoya mexanizmlarini doimiy ravishda yangilab borishni taqozo etmoqda.

Milliy qonunchilik bazasining takomillashishi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli Qonuni sohada yangi davrni boshlab berdi¹. Ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019-y. O'RQ-561-son.

qonun bilan ilk bor "tazyiq", "zo'ravonlik" va "himoya orderi" tushunchalari huquqiy muomalaga kiritildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli Farmoni bilan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi yangi bosqichga ko'tarildi². Mazkur farmon asosida zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun "Ayollar daftari" orqali moddiy va ma'naviy ko'mak berish, ularni bandligini ta'minlash mexanizmlari joriy etildi. Shuningdek, himoya orderi zo'ravonlik qurbonini himoya qilishning eng samarali mexanizmi bo'lib xizmat qilmoqda. Ichki ishlar organlari tomonidan beriladigan ushbu hujjat zo'ravonlik sodir etgan shaxsga muayyan cheklovlarni yuklaydi. 2023-yil aprel oyida jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga kiritilgan o'zgarishlar bilan oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangani ushbu mexanizmning "ishlari" paydo bo'lganidan dalolat beradi³.

Metod va materiallar. Mazkur tadqiqot xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan ijtimoiy-huquqiy himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida normativ-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuvlar asos bo'ldi.

Normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O'zbekiston Respublikasining 2019–2024-yillarda qabul qilingan qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, shuningdek, sohaviy idoraviy hujjatlar o'rganildi. Shu bilan birga, himoya orderi, reabilitatsiya markazlari va "Ayollar daftari" tizimlari kabi yangi institutlarning amaliy ishlashi tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod yordamida O'zbekiston tajribasi Turkiya, Gruziya va Shvetsiya kabi Skandinaviya davlatlarining amaliyoti bilan solishtirildi. Solishtirish mezonlari sifatida himoya orderi muddati, ixtisoslashgan huquqni muhofaza qiluvchi xizmatlar, reabilitatsiya infratuzilmasi va zo'ravonlik uchun javobgarlik choralarining turi olindi.

Empirik ma'lumotlar sifatida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi va rasmiy statistik manbalar tahlil qilindi. Ushbu ma'lumotlar yordamida himoya orderlari berilishi, oilaviy zo'ravonlik holatlari va ijtimoiy yordam tizimining samaradorligi haqida tasavvur hosil qilindi.

Tadqiqot davomida natijalar induksiya va deduksiya usullari orqali umumlashtirilib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu tariqa, xotin-qizlarni himoya qilishning mavjud mexanizmlari va xalqaro tajriba asosida ularni yanada takomillashtirish yo'llari aniqlangan.

Mulohaza va natijalar. Zo'ravonlikka qarshi kurashishda xalqaro standartlarni o'rganish milliy modelni boyitishga xizmat qiladi. Shu o'rinda, jadvaldagi ma'lumotlarni ko'rib chiqib, turli davlatlarning tajribasini solishtirish orqali O'zbekiston tizimini qanday takomillashtirish mumkinligini tahlil qilish mumkin. (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 07.03.2022-y. PF-87-son.

³ O'zbekiston Respublikasining 11.04.2023-yildagi O'RQ-829-sonli QonuniZ

Solishtirish mezonlari	O'zbekiston	Turkiya (Istanbul konvensiyasi tajribasi)	Gruziya	Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya)
Himoya orderi muddati	30 kungacha (uzaytirish imkoniyati bilan)	6 oygacha	6 oygacha	Muddat cheklanmagan (xavf darajasiga qarab)
Ixtisoslashgan politsiya	Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar	"KADES" mobil ilovasi va maxsus bo'limlar	Ayollar masalalari bo'yicha prokurorlar	Gender zo'ravonligiga qarshi maxsus departamentlar
Reabilitatsiya markazlari	"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va Shelterlar	Keng tarmoqli davlat Shelterlari	Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan boshpanalar	Yuqori darajadagi maxfiy boshpanalar va ijtimoiy paket
Zo'ravonlik turi uchun jazo	Ma'muriy va Jinoiy	Qat'iy jinoiy javobgarlik	Jinoiy javobgarlik (kuchli nazorat)	"Ayollar tinchligi" qonuni (o'ta qat'iy jazo)

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston qonunchiligi so'nggi yillarda keskin rivojlangan bo'lsa-da, himoya orderining muddatlari va ixtisoslashgan xizmatlar ko'lamini kengaytirish bo'yicha Skandinaviya va Gruziya tajribasidan o'rganish lozim bo'lgan jihatlar mavjud⁴. Ayniqsa, Gruziya tajribasidagi kabi ayollar masalalari bo'yicha ixtisoslashgan prokurorlar tizimini joriy qilish tergov sifatini oshirishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekistonda quyidagi zamonaviy mexanizmlar ishga tushirilgan:

- 1146 - Ishonch telefoni: Sutka davomida psixologik va huquqiy maslahat berish tizimi⁵.
- Reabilitatsiya markazlari: Zo'ravonlik qurbonlariga boshpana, tibbiy va psixologik yordam ko'rsatuvchi muassasalar.
- Mahalla xotin-qizlar faoli: Har bir mahallada ayollar muammolarini "uybay" o'rganuvchi tizim yaratildi⁶.

Prezidentning 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli Farmoniga binoan, ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar bilan ishlash tizimi "Inson" ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish markazlariga o'tkazildi⁷. Bu esa yordamning manzilli va professional bo'lishini ta'minlaydi. Amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, amaliyotda xotin-qizlarni himoya qilish mexanizmlari oldida bir qator to'siqlar saqlanib qolmoqda. Xususan, himoya orderi berilganidan so'ng, zo'ravon va jabrlanuvchining bir uyda yashashda davom etishi takroriy zo'ravonlik xavfini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,

⁴ Karimov N. Xalqaro huquqda ayollar huquqlari himoyasi: qiyosiy tahlil. Toshkent, 2023. 45-b.

⁵ Oila va xotin-qizlar qo'mitasi rasmiy hisoboti, 2023-yil yakunlari

⁶ Vazirlar Mahkamasining "Mahalladagi xotin-qizlar faoli faoliyatini tartibga solish to'g'risida"gi Qarori, 2022-y.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 01.06.2023-y. PF-82-son.

aksariyat hollarda ayollar iqtisodiy qaramlik sababli zo‘ravon bilan birga yashashga majbur bo‘lmoqdalar⁸.

Shuningdek, kiber-makonda xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiqlar (shaxsiy ma’lumotlarni tarqatish bilan qo‘rqitish, haqorat qilish) yangicha huquqiy yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda raqamli zo‘ravonlik qurbonlari uchun ham alohida "elektron himoya orderi" tizimini joriy etish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda⁹. Bunday tizim xotin-qizlarni internetda va ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizligini ta’minlashga yordam beradi, ularni qo‘rqitish yoki tahdid qilish holatlarini tez va samarali tarzda bartaraf etishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, jamiyatda kiber hujumlar va raqamli zo‘ravonliklarga nisbatan solishtiruvchi muhit kamayadi va raqamli makonda ham gender tengligi kuchayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, birgina 2023-yil davomida xotin-qizlarga nisbatan 40 mingdan ortiq himoya orderlari berilgan. Ularning 80 foizidan ortig‘i oiladagi tazyiqlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Muhimi shundaki, jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o‘zgarishlardan so‘ng, oilaviy zo‘ravonlik bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ishlar soni ortishi emas, balki bu turdagi huquqbuzarliklarning latent (yashirin) darajasi kamayishi kuzatilmoqda¹⁰. Bu shuni ko‘rsatadiki, yangi qonunchilik va tizimli choralar nafaqat jinoyatlarni aniqlashni osonlashtirmoqda, balki oiladagi zo‘ravonlikni yashirish yoki e’tibordan chetda qolishini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Natijada, xotin-qizlar o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy va institutsional tizimi so‘nggi yillarda tubdan yangilandi. "Himoya orderi" institutining joriy etilishi va oilaviy zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi ayollar huquqlarini ta’minlashning muhim kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘tkazilgan tahlillar zamonaviy himoya mexanizmlari samaradorligini oshirishda xalqaro tajribani, xususan, ixtisoslashgan huquqiy yordam va reabilitatsiya xizmatlarini yanada kengaytirish zarurligini ko‘rsatdi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirishda faqat huquqiy choralar bilan cheklanib qolmay, ularning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash va jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish lozim. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va mahalla xotin-qizlar faollari hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarish jabrlanuvchilarga manzilli yordam ko‘rsatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda faol bo‘lishini ta’minlovchi islohotlar nafaqat gender tengligini mustahkamlaydi, balki adolatli, barqaror va rivojlangan jamiyatning asosini yaratadi. *(Bu harakatlar kelajak avlodga teng imkoniyatlar taqdim etadi, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantiradi hamda mamlakatni global miqyosda raqobatbardosh qiladi. Shuning uchun, xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatning umumiy farovonligi*

⁸ O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-apreldagi O‘RQ-829-sonli Qonuni

⁹ G.Matkarimova. "Xotin-qizlarni kiber-zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari". Yuridik fanlar axborotnomasi, 2024.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi departamenti statistik hisoboti, 2023-y.

va barqaror taraqqiyoti uchun muhim va zarur hisoblanadi, bu esa har bir fuqaroning huquq va imkoniyatlaridan teng darajada foydalanishini ta'minlaydi).

2. Himoya orderlari tizimini mustahkamlash va uning samarali ijrosini ta'minlash, xavfsizlik va shaxsiy huquqlarni himoya qilishga xizmat qiladi. (Sud tomonidan beriladigan himoya orderlari, jumladan zo'ravonlik yoki tahdid holatlarida shaxslarni xavfdan himoya qilish imkonini yaratadi, huquqiy yordam tizimini mustahkamlashga hissa qo'shadi va jamiyatda adolat hamda ishonch muhitini rivojlantiradi. Shu orqali har bir fuqaro o'z huquq va xavfsizligini kafolatlangan tarzda saqlay oladi, jinoyatchilikning oldini olish va fuqarolar faoliyatini erkin amalga oshirish imkoniyati oshadi).

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019. [LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi](#)
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 02.09.2019. [LEX.UZ - Ўзбекистон қонунчилиги](#)
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
5. Abdullayeva M. Gender tenglik nazariyasi va amaliyoti. – T.: Akademnashr, 2022.
6. Xalqaro konvensiyalar (CEDAW): Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida. [UN Human Rights Office](#)
7. Sultonova L. Ayollarni ijtimoiy himoya qilishning huquqiy mexanizmlari: Xorij tajribasi. Ilmiy to'plam, 2023.
8. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlari. [Национальное агентство социальной защиты при Президенте...](#)
9. Yunusov A. Kriminologiya: Oila va maishiy zo'ravonlik muammolari. – T.: TDYU, 2022.
10. Global Gender Gap Report 2023. [Global Gender Gap Report 2023 | World Economic Forum](#)